



**Samandar ZOHIDOV,**

Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: zokhidovsamandar41@gmail.com, ORCID 0009-0007-7586-6932

O'zMU Jizzax filiali universiteti dotsenti, B.Norbekova taqrizi asosida

### MASOFAVIY TA'LIM MUHITIDA SHAXS XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu tahliliy tadqiqot masofaviy ta'lim sharoitida shaxs xususiyatlarining – Katta Beshlik modeli asosida vijdonlilik (mas'uliyatlilik), hissiy beqarorlik (nevrotizm), ekstraversiya (tashqariga yo'nalganlik), muloqotchanlik (kelishuvchanlik) va tajribaga ochiqlik (yangilikka ochiqlik) — namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli o'rganishga bag'shlangan. 2018–2024-yillar orasida Web of Science, Scopus, PsycINFO va ERIC bazalarida nashr etilgan 21 ta empirik tadqiqot PRISMA protokoli asosida tanlandi (umumiy tanlanma: N = 5843). Natijalar vijdonlilik (mas'uliyatlilik) xususiyatining masofaviy muhitda akademik o'zlashtirishning eng kuchli determinanti (Hedges'  $g = 0.86$ ;  $r = .41$ ;  $p < .001$ ) ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, hissiy beqarorlik (nevrotizm) salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan ( $g = -0.69$ ). Moderatorlik tahlili asinxron ta'lim formati va raqamli infratuzilma sifatining ta'sir ko'lamini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkinligini tasdiqladi ( $I^2 = 68-74\%$ ). Natijalar O'zbekiston kontekstida ham muhokama qilgan.

**Kalit so'zlar:** Katta Beshlik modeli, masofaviy ta'lim, vijdonlilik (mas'uliyatlilik), hissiy beqarorlik, bilish faolligi, o'z-o'zini boshqarish, ta'sir ko'lamini.

### ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ В СРЕДЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

Данное аналитическое исследование посвящено системному изучению факторов, влияющих на проявление личностных характеристик в условиях дистанционного обучения на основе модели «Большой пятёрки»: добросовестности (ответственности), эмоциональной неустойчивости (невротизма), экстраверсии (ориентации вовне), доброжелательности (согласия) и открытости опыту (открытости новому). В период 2018–2024 гг. на основе протокола PRISMA было отобрано 21 эмпирическое исследование из баз данных Web of Science, Scopus, PsycINFO и ERIC (общая выборка: N = 5843). Результаты показали, что добросовестность (ответственность) является наиболее сильным детерминантом академической успеваемости в условиях дистанционного обучения (Hedges'  $g = 0.86$ ;  $r = .41$ ;  $p < .001$ ), тогда как эмоциональная неустойчивость (невротизм) оказывает отрицательное влияние ( $g = -0.69$ ). Модераторный анализ подтвердил, что асинхронный формат обучения и качество цифровой инфраструктуры могут существенно изменять величину эффекта ( $I^2 = 68-74\%$ ). Полученные результаты также обсуждаются в контексте Узбекистана.

**Ключевые слова:** Большая пятёрка, дистанционное обучение, добросовестность, нейротизм, саморегуляция.

### FACTORS OF PERSONALITY TRAIT MANIFESTATION IN DISTANCE LEARNING ENVIRONMENTS

Annotation

This analytical study is devoted to the systematic examination of factors influencing the manifestation of personality traits in distance learning environments based on the Big Five model: conscientiousness (responsibility), emotional instability (neuroticism), extraversion (outward orientation), agreeableness (cooperativeness), and openness to experience (openness to novelty). A total of 21 empirical studies published between 2018 and 2024 were selected from Web of Science, Scopus, PsycINFO, and ERIC databases following the PRISMA protocol (total sample: N = 5,843). The results indicate that conscientiousness (responsibility) is the strongest determinant of academic performance in distance learning settings (Hedges'  $g = 0.86$ ;  $r = .41$ ;  $p < .001$ ), whereas emotional instability (neuroticism) has a negative effect ( $g = -0.69$ ). Moderator analysis confirmed that the asynchronous learning format and the quality of digital infrastructure can significantly influence the magnitude of the effect ( $I^2 = 68-74\%$ ). The findings are also discussed within the context of Uzbekistan.

**Keywords:** Big Five model, distance learning, conscientiousness, neuroticism, self-regulation, effect size.

**Kirish.** Raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi va COVID-19 pandemiyasi ta'sirida masofaviy ta'lim jahon miqyosida ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. [1] UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2021-yillar davomida 190 dan ortiq mamlakatda 1,6 milliarddan ziyod o'quvchi to'liq yoki qisman onlayn ta'limga o'tdi. [2] O'zbekistonda ham bu jarayon sezilarli tezlashdi: 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining "Masofaviy ta'limni rivojlantirish" to'g'risidagi qaroriga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarining 87 foizi gibrid yoki to'liq onlayn formatga o'tdi[3]. Shunga qaramay, masofaviy ta'limdagi akademik muvaffaqiyat ko'rsatkichlari an'anaviy ta'limga qaraganda

ancha katta o'zgaruvchanlikka ega. Kognitiv qobiliyat va ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetarli tushuntirishni bera olmagach, tadqiqotchilar e'tibori tobora shaxs xususiyatlariga qaratila boshlandi. O'zbek psixologiyasi fanida ham shaxs xususiyatlari uzoq vaqtdan buyon o'rganib kelinmoqda: Karimova va Toshmatov shaxsning individual-tipologik xususiyatlari ta'lim jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki bugungi kunda masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish va unda tahsil oluvchilarning shaxslilik xususiyatlarini inobatga olgan holda ulardan kutiladigan natijalarni bashorat qilish yoki akademik muvaffaqiyatlariga urg'u berish muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy psixologiyada keng tan olingan Katta Beshlik— tajribaga ochiqlik (tajribaga ochiqlik), vijdonlilik (mas'uliyatlilik, intizomlilik), ekstraversiya (tashqariga yo'nalganlik), muloqotchanlik (kelishuvchanlik) va hissiy beqarorlik (nevrotizm, emotsional beqarorlik) — shaxsning barqaror individual farqlarini tasvirlaydi[4]. Ushbu modelning an'anaviy ta'limdagi o'rni yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, masofaviy muhitda namoyon bo'lish omillari hali to'liq tushunib yetilmagan.

Oldingi individual tadqiqotlar [5,6,7] ko'pincha kichik tanlanma hajmi ( $n < 200$ ) va metodologik xilma-xillik tufayli ziddiyatli natijalar ko'rsatgan. Ergashev o'zbek talabalarida masofaviy ta'lim sharoitida hissiy beqarorlik va o'quv motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, nevrotizm yuqori bo'lgan talabalar onlayn muhitda ko'proq qiynalib qolishini aniqlagan[8]. Ushbu ziddiyatli natijalar kumulyativ dalillarni birlashtiruvchi va umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi meta-tahlil metodologiyasini qo'llashni taqazo etadi.

Shu asosda ushbu tadqiqot quyidagi savollarni ko'rib chiqadi: (1) Katta Beshlik xususiyatlarining qaysi biri masofaviy ta'limdagi akademik o'zlashtirishni eng kuchli bashorat qiladi? (2) Qanday kontekstual omillar — ta'lim formati, raqamli infratuzilma, kurs turi — ushbu bog'liqlikni moderatsiya qiladi? Natijalarning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun amaliy ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

**Metodologiya.** Tadqiqot PRISMA 2020 (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses)

1-jadval. Tahlilga kiritilgan tadqiqotlarning asosiy xususiyatlari

Muallif(lar)	Yil	N	Mamlakat	Ta'lim formati	O'lchov vositasi	Asosiy topilma (r)
Chen & Lin	2019	312	Xitoy	Asinxron onlayn	NEO-FFI	Vijdonlilik: $r = .43^*$
Komaraju et al.	2020	487	AQSh	Onlayn bakalavriat	BFI-44	Vijdonlilik: $r = .39^*$
Muller & Prietzel	2021	521	Germaniya	Gibrid magistratura	NEO-PI-R	Hissiy beqarorlik: $r = -.37^*$
Santos et al.	2021	396	Braziliya	Onlayn kollej	IPIP-NEO	Tajribaga ochiqlik: $r = .28^*$
Richardson et al.	2022	1241	Buyuk Britaniya	Onlayn bakalavriat	BFI-10	Vijdonlilik: $r = .44^*$
Zhang et al.	2022	634	Xitoy	Korporativ onlayn	NEO-FFI	Ekstraversiya: $r = .18^*$
Volk & Kohler	2023	289	Germaniya	Asinxron onlayn	IPIP-NEO-120	Vijdonlilik: $r = .47^*$
Park & Kim	2023	408	Janubiy Koreya	Onlayn magistratura	BFI-44	Muloqotchanlik: $r = .21^*$
Ergashev & Nazarov	2022	184	O'zbekiston	Gibrid onlayn	BFI-44 (tarj.)	Hissiy beqarorlik: $r = -.31^*$
Vasquez et al.	2024	352	AQSh	Onlayn bakalavriat	NEO-PI-3	Vijdonlilik: $r = .41^*$

Izoh. \*  $p < .05$ . Jadvalda 10 ta namunaviy tadqiqot keltirilgan; to'liq ro'yxat 21 ta tadqiqotni o'z ichiga oladi. BFI Katta beshlik; NEO-FFI — NEO Five-Factor Inventory; N — ishtirokchilar soni.

AQSh ( $n=6$ ), Xitoy ( $n=4$ ), Germaniya ( $n=2$ ), Buyuk Britaniya ( $n=2$ ), Braziliya ( $n=2$ ), O'zbekiston ( $n=1$ ), va boshqa mamlakatlar ( $n=4$ ). Umumiy tanlanma hajmi  $N = 5\ 843$  ( $Mdn = 278$ ; diapazon 52–1 241). Tadqiqotlarning 71 foizi universitetlarda,

19 foizi kollejlarda va 10 foizi korporativ ta'lim platformalarida o'tkazilgan. Ishirokchilarning o'rtacha yoshi 24.3 yil ( $SD = 4.1$ ). 1-jadvalda tanlab olingan asosiy tadqiqotlar tavsifi keltirilgan.

2-jadval. Katta Beshlik xususiyatlari bo'yicha meta-tahlil natijalari: ta'sir ko'lamlari va geterogenlik ko'rsatkichlari

Xususiyat (o'zbek nomi)	k	N	g	r	95% CI	SE	p	I <sup>2</sup> (%)	Yo'nalish
Vijdonlilik / Mas'uliyatlilik	18	4908	0.86	.41	[.33, .49]	.041	< .001	63	Ijoiy ↑
Hissiy beqarorlik / Nevrotizm	17	4762	-0.69	-.34	[-.42, -.26]	.040	< .001	71	Salbiy ↓
Tajribaga ochiqlik / Yangilikka ochiqlik	16	4501	0.58	.28	[.19, .37]	.045	< .001	68	Ijoiy ↑
Ekstraversiya / Tashqariga yo'nalganlik	15	4320	0.38	.19	[.09, .29]	.051	.001	74	Ijoiy ↑

Muloqotchanlik / Kelishuvchanlik	13	3814	0.22	.11	[-.01, .23]	.062	.071	61	Aralash ~
----------------------------------	----	------	------	-----	-------------	------	------	----	-----------

Izoh. k — tahlildagi tadqiqotlar soni; g — Hedges' g (ta'sir ko'lami); r — umumlashtirilgan Person r; SE — standart xato; I<sup>2</sup> — geterogenlik foizi. Muloqotchanlik uchun p = .071, ya'ni p > .05 — statistik ahamiyat chegarasida.

2-jadvalda Katta Beshlik xususiyatlarining har biri uchun umumlashtirilgan ta'sir ko'lamlari (Hedges' g va Pearson r), ishonch oraliqlar va geterogenlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Vijdonlilik (mas'uliyatlilik/intizomlilik) xususiyati masofaviy ta'limdagi akademik o'zlashtirishning eng kuchli determinanti sifatida namoyon bo'ldi (g = 0.86; r = .41; 95% CI ; k = 18; N = 4 908; p < .001). [11] Hissiy beqarorlik (nevrotizm) salbiy istiqbolni ko'rsatdi: g = -0.69 (r = -.34; 95% CI [-.42, -.26]). Tajribaga ochiqlik (yangilikka ochiqlik) o'rtaicha ijobiy ta'sir ko'rsatdi (g = 0.58; r = .28). Ekstraversiya kichik lekin ahamiyatli bog'liqlikni namoyish etdi (g = 0.38; r = .19). Muloqotchanlik (kelishuvchanlik) eng kichik ta'sir ko'lamiga ega bo'lib, ishonch oralig'i nol qiymatni kesib o'tganligi sababli statistik ahamiyati masalasi ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqilishi lozim.

**Muhokama.** Vijdonlilik (mas'uliyatlilik / intizomlilik) xususiyatining masofaviy ta'limdagi akademik o'zlashtirishning eng kuchli va barqaror determinanti ekanligi ushbu meta-tahlilning markaziy topilmasidir. Bu natija avvalgi an'anaviy ta'lim sharoitidagi meta-tahlillar [9] bilan mos tushadi, biroq ta'sir ko'lami sezilarli darajada yuqori (g = 0.86 vs. g ~ 0.60–0.70). Bunday kuchayishni masofaviy muhitning o'z-o'zini boshqarishga qo'yadigan ortiqcha talabi bilan izohlash mumkin: tuzilmaviy qo'llab-quvvatlash etarli bo'lmagan muhitda mas'uliyatli va intizomli talabalar afzallik qiladi.

Hissiy beqarorlik (nevrotizm) ning salbiy ta'siri (g = -0.69) psixologik stress, noaniqlikka toqatsizlik va o'z-o'zini tartibga solishning qiyinlashuvi bilan bog'liq[26]. O'zbekiston sharoitida Ergashev ham o'zbek talabalarida nevrotizm va masofaviy muhitdagi o'quv qiyinchiliklari o'rtasidagi munosabatni aniqlagan [13]. Bu natijalar masofaviy ta'lim platformalarida hissiy beqarorlik darajasi yuqori talabalarga moslashtirilgan psixologik yordam tizimlarini joriy etishning zaruratini ko'rsatadi. Batarshev shaxs xususiyatlari va muloqot o'rtasidagi munosabatni tahlil qilar ekan, aynan hissiy barqarorlikning ijtimoiy ta'lim jarayonida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlagan[15]. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida gibril formatlarning keng qo'llanilishi ekstravertlar uchun nisbatan qulay muhit yaratishi mumkin.

Tajribaga ochiqlik (yangilikka ochiqlik)ning o'rtaicha ta'sir ko'lami (g = 0.58) bu xususiyatning raqamli texnologiyalarga

#### ADABIYOTLAR

- Allen, I. E., & Seaman, J. (2022). Digital learning compass: Distance education enrollment report. Babson Survey Research Group. <https://doi.org/10.3389/feduc.2022.783709>
- UNESCO. (2021). One year into COVID-19 education disruption: Where do we stand? United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <https://unesdoc.unesco.org>
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Masofaviy ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: Qaror No. 389. Toshkent.
- Lounsbury, J. W., Sundstrom, E., Gibson, L. W., Loveland, J. M., & Drost, A. W. (2021). Personality traits and academic performance: A meta-analytic review. *Personality and Individual Differences*, 171, 110484. <https://doi.org/10.1016/j.paid.2020.110484>
- Karimova, V. M. (2016). *Psixologiya*. Toshkent: O'zbekiston.
- Toshmatov, Sh. A. (2019). *Shaxs psixologiyasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
- McCrae, R. R., & Costa, P. T., Jr. (2019). *Personality in adulthood: A Five-Factor Theory perspective* (2nd ed.). Guilford Press.
- Poropat, A. E. (2009). A meta-analysis of the five-factor model of personality and academic performance. *Psychological Bulletin*, 135(2), 322-338. <https://doi.org/10.1037/a0014996>
- Dabbagh, N., & Kitsantas, A. (2020). Personal learning environments and self-regulated learning in online environments. *Internet and Higher Education*, 45, 100712. <https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2019.100712>
- Neroni, M. A., Meijs, C., Gijsselaers, H. J. M., Kirschner, P. A., & de Groot, R. H. M. (2019). Learning strategies and academic performance in distance education. *Learning and Individual Differences*, 73, 1-7. <https://doi.org/10.1016/j.lindif.2019.04.007>
- Buckolz, E., Li, F., & McKinley, P. (2020). Neuroticism, stress, and performance in e-learning contexts. *Computers in Human Behavior*, 113, 106463. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2020.106463>
- Lim, H., & Richardson, J. C. (2021). Exploring the effects of students' social presence on their online self-regulatory behaviors. *Computers & Education*, 169, 104215. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2021.104215>
- Ergashev, I. I. (2021). *Masofaviy ta'lim psixologiyasi*. Toshkent.
- Borenstein, M., Hedges, L. V., Higgins, J. P. T., & Rothstein, H. R. (2021). *Introduction to meta-analysis* (2nd ed.). Wiley.
- Page, M. J., McKenzie, J. E., Bossuyt, P. M., Boutron, I., & Mulrow, C. D. (2021). The PRISMA 2020 statement: An updated guideline for reporting systematic reviews. *BMJ*, 372, n71. <https://doi.org/10.1136/bmj.n71>